

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
MUSIQA RAHBARI MUTAXASSISLIGIDAN
KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI MUSIQA RAHBARI MUTAXASSISLIGIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa rahbarlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat musiqa rahbarlarini kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo'llaniladigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish, aprobat siya qilish va amaliyotga joriy etish jarayonlari uchun metodik asos hisoblanadi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi – talabgorlarning musiqa fanlari bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, tinglash va ijro madaniyati faoliyatini tashkil etish kompetensiyasi, musiqa madaniyati fanini o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi "Davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 87-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi "Davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 233-son buyrug'i.

III. Baholash qamrovi

Musiqi rahbarlari uchun mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 90 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan (Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari (Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi musiqa madaniyati fanining asosiy mazmun yo'nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari musiqa elementar nazariyasi, musiqa tarixi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa o'qitish metodikasi va pedagogik mahoratga oid bilim hamda ko'nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, amaldagi o'quv dasturlari hamda fan bo'yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Musiqa elementar nazariyasi (1-10 savollar)		
Musiqa elementar nazariyasi	- Musiqiy tovush va uning xususiyatlarini bilish; - musiqiy tizim, haqida bilish; - tovushqator, pog'onalar haqida bilish; - oktavali tizim, diapazon, registr haqida bilish; - temperatsiyalangan soz tushunchasini bilish; - alteratsiyam belgilarini farqlay olish; - tovushlar engarmonizmini farqlash; - nota yozuvi tizimi, kalitlarni farqlay olish; - tovush cho'zimlari va ularni uzaytirish belgilarini aniqlash; - pauzalar turlarini farqlay olish; - musiqaning ifoda vositalarini to'g'ri qo'llash; - nota yozuvini qisqartirish belgilarini farqlay olish; - metr turlarini aniqlash; - musiqadagi temp turlarini farqlay olish; - major va minor lad turlarini farqlay olish;	10

	- tonallikning kvinta davrasi tizimi bo'yicha aniqlay olish; - intervallarni notalardan tuzish va ularni ijroda farqlay olish; -akkordlar va uning turlarini tuzishni bilish;	
2. Musiqa tarixi (11-20 savollar)		
O'zbek xalq musiqa ijodi	-O'zbek xalq musiqa ijodining rivojlanish bosqichlarini bilish; -folklor musiqa janri turlarini farqlash; -kasbiy musiqa janrlarini farqlay olish; -maqom san'ati va uning turlarini farqlash; -mahalliy uslublarni farqlash; -milliy cholg'ularning kelib chiqish tarixini va ijrochilik uslublarni farqlay olish;	10
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa o'qitish metodikasi (21-40 savollar)		
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi	-Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasining maqsad va vazifasini bilish; -maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun musiqa mashg'ulotlarni rejalashtirishni bilish; -musiqa mashg'ulotlari faoliyatini to'g'ri tashkil etish; - guruhlar kesimida bolalar uchun musiqa mashg'ulotlari mazmuni va ko'rsatmalarini bilish; - guruhlar kesimida bolalar bilan o'tkaziladigan ertaliklarni bilish; - guruhlar kesimida bolalar uchun tavsiya etilgan musiqiy asarlar ro'yxatini bilish; - guruhlar kesimida bolalar uchun musiqiy ritmik harakatlarni aniqlay olish; -musiqiy-didaktik o'yin va mashqlarni amaliyotda qo'llash; -bolalar cholg'u asboblariida ijro usullarini amaliyotda qo'llash; -o'zbek milliy raqs harakat turlarini mashg'ulotlarda qo'llash; -musiqa mashg'uloti faoliyatlari uchun tanlangan repertuarlarni ijro etishni bilish; -bolalar folklor qo'shiqlarining ijro usullarini tahlil qilish; -xorijiy kompozitorlar yaratgan bolalar musiqa asarlarini amaliyotda qo'llash;	20

	-o'zbek bolalar kompozitorlari yaratgan asarlarni farqlash, ularni amaliyotda qo'llash; - MTTda bayram tadbirlarini tashkil etishni yo'llarini amaliyotda qo'llay olish;	
--	--	--

Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

2-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Test soni
1. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – mashg'ulot va uning turlarini bilish, mashg'ulotni rejalashtirish, tashkil etish va bolalar guruhini boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – guruh tarbiyachisining huquq va majburiyatlarini bilish, tarbiyachining hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, guruh jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta'lim bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	10

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir asosiy dalillar, qonunlar, ta'riflar, formula va hodisalarni yoddan bilish, tanish, esga olish.	22
2	Qo'llash	Dalil va qonunlarni tanish vaziyatlarda qo'llash, nota matnlarni, musiqiy parchalarni, audioyozuv, ritmik shakl, kuy namunalarni tahlil qilish.	23
3	Mulohaza qilish	Notanish vaziyatda qo'llash, tahlil-sintez, sabab-oqibat bog'lanish, izohlash, baholash, moslashtirish.	5

V. Baholash mezon

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **ball** berilmaydi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinad

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa”. U.K.Rahmonov, A.A. Ergashev. Toshkent-2021
2. “Ilk Qo‘shiqlarim” Y. Ten “Maktabgacha ta’lim vazirligi muassasalaridagi “Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi” MChJ
3. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi. G.Sharipova, Sh. Yakubova. Toshkent-2017
4. Maktabgacha ta’limda musiqa o‘qitish metodikasi. N.Rejametova Toshkent 2024
5. Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya Ibraximjanova G.A., Urmanova L.A., Xodjayeva M. X., Xalilov F.N. Toshkent-2017
6. Элементарная теория музыки. Б. Алексеев, А. Мясоедов. Москва.: Музыка-1986
7. Musiqa elementar nazariyasi bo‘yicha mashq va vazifalar to‘plami. Q. Rahimov. Toshkent-O‘zbekiston-2006
8. Musiqa lug‘ati. I. Akbarov. Toshkent-1987
9. Musiqa elementar nazariyasi. Rahimov Q. Toshkent-2007
10. Solfedjio. O. Abdullayeva. Toshkent-2010
11. Solfedjio. O.Azimov. Toshkent-2014
12. Solfedjio. N. Rajabova. Toshkent 2004
13. Musiqa nazariyasi (Solfedjio) SH. Jalilov Buxoro-2022
14. M.B. Agayeva. Musiqa nazariyasi Toshkent-2016
15. O‘zbek musiqasi tarixi. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamov Toshkent-2018
16. O‘zbek musiqasi tarixi. Madrimov B.X. Toshkent-2018
17. O‘zbek an‘anaviy cholg‘ulari. S.Begmatov, M.Matyoqubov. Toshkent-2008
18. Oiladosh cholg‘ularni o‘rganish. Kayumov Ibragim Fayzullayevich. Buxoro -2020
19. O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi. Anvar Liviye. Toshkent-2005
20. O‘zbek musiqasi adabiyoti. N.Yuldasheva, N.Raxmatova Toshkent-2016
21. O‘zbek musiqasi tarixi. Sh.Ayxodjayeva, Sh.Ergasheva, A.Zokirov Toshkent-2021
22. O‘zbek xalq musiqasi madaniyati. S.Mannopov . Toshkent-2004
23. O‘zbek xalq musiqasi ijodi. H.Nurmatov, N.Yo‘ldosheva. Toshkent-2007
24. O.Ibrohimov Maqom asoslari. Toshkent-2023
25. Maqom ritmlari solfedjio darslarida. S.K. Matyakubova. Toshkent-2011
26. Musiqa tarixi. Ibrohimov O.A., Xudoyev G‘.M. Toshkent-2018
27. Bastakorlar ijodi. Soinjon Begmatov. Toshkent-2017
28. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik. A.H.Liviye. Toshkent-2001
29. An‘anaviy o‘zbek musiqasi asoslari. Rustam Abdullayev. Toshkent-2022
30. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. B.Boltayev, J.A.Xodjayev. Toshkent-2021
31. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Nafisa Yusupova. Toshkent-2010
32. “Keling birga kuylaymiz”. Ulug‘bek Mirzahmedov. Toshkent-2017
33. Bolalar musiqasi asarlari ustida ishlash. D.A.Karimova, Sh.A.Yakubova Toshkent-2016
34. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Toshkent-2022

Pedagogik mahorat bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innavatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv- uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy normativ-huquqiy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabr dagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 423-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2021-yil 17-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar” to‘g‘risidagi 0016-21-son buyrug‘i.
6. O‘zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil “29”-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 323-son buyrug‘i

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.